

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Azadova Shoxista Aybekovna

Ranch texnologiyalari universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Vetnam kabi davlatlar misolida oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish, xalqaro standartlarni joriy etish, riskni baholash tizimlari va xususiy sektorni jalb etish tajribalari ko'rib chiqiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro muvofiqlashtirish, ilg'or ilmiy asoslangan yondashuvlar va davlat-xususiy sheriklik muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, xalqaro tajriba, riskni baholash, Codex Alimentarius, rivojlanayotgan mamlakatlar.

Kirish

Global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligi so'nggi yillarda inson salomatligiga tahdid solayotgan eng muhim masalalardan biriga aylangan. Oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar soni ortib borayotgan bir paytda, dunyoning turli mamlakatlarida mazkur muammoni bartaraf etish bo'yicha turli yondashuvlar va boshqaruv mexanizmlari shakllanmoqda. Ayniqsa, xalqaro savdoning kengayishi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol tizimining globallasuvi natijasida, bir mamlakatda yuzaga kelgan oziq-ovqat bilan bog'liq muammo boshqa mintaqalar aholisi salomatligiga ham bevosita xavf tug'dirishi mumkin. Masalan, 2008 yilda Xitoyda yuz bergan melamin bilan ifloslangan sut

mahsulotlari inqirozi 46 mamlakatda 50 mingdan ortiq chaqaloqning kasal bo'lishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida samarali tizimlar yaratishga erishgan. Ular orasida AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, Avstraliya kabi mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha riskka asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy etib, ushbu sohada xususiy sektorni faol ishtirok ettirish orqali yuksak natijalarga erishgan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Vetnam, Hindiston, Tailand va boshqa Osiyo davlatlari ham xalqaro tajribani o'rganib, milliy strategiyalarini takomillashtirishga harakat qilmoqda. Ammo bu jarayonda ularning oldida mavjud qonunchilikning zaifligi, institutsional salohiyatning pastligi, laboratoriya infratuzilmasining yetarli emasligi kabi qator muammolar turibdi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi nafaqat sog'liqni saqlash, balki iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro savdo bilan ham uzviy bog'liq. Mamlakatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash — ichki bozorni himoya qilish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va aholining ishonchini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jahon bozorida qatnashayotgan mamlakatlar uchun Codex Alimentarius, WTO SPS bitimlari va boshqa xalqaro me'yorlarga muvofiq harakat qilish zarurati kundan kunga ortib bormoqda.

Mazkur maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Jumladan, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Vetnam kabi davlatlardagi yondashuvlar, institutsional mexanizmlar, riskni baholash tizimlari, davlat-xususiy sektor hamkorligi va

xalqaro hamkorlik asosida yaratilgan tizimlarning ustunlik va kamchiliklari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqola yakunida esa O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar sharhi

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida olib borilgan xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy global oziq-ovqat tizimi murakkab, ko'p bosqichli va transchegaraviy xarakterga ega bo'lib, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yanada mukammal yondashuvlarni talab qiladi. "Global savdning jadallashuvi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari bir necha mamlakatlar bo'ylab harakatlanadi va har bir bosqichda xavf-xatar yuzaga keladi" (Lin, 2011). Shu sababli ham xalqaro tashkilotlar — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Codex Alimentarius Komissiyasi kabi subyektlar ushbu sohada normativ-huquqiy asos yaratishga qaratilgan faoliyat olib bormoqda.

Xalqaro tajribada oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishda riskka asoslangan yondashuv yetakchi o'rinni egallaydi. "Risklarni aniqlash, ularni baholash va ularga nisbatan aniq boshqaruv choralari ko'rish — zamonaviy oziq-ovqat siyosatining asosi hisoblanadi" (Unnevehr & Hoffmann, 2015). Bu model Yevropa Ittifoqi, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarda allaqachon amaliyotga joriy qilingan va ijobiy natija bergan. Masalan, AQSHda FDA va FSIS kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan Food Safety Modernization Act (FSMA) riskga asoslangan monitoring tizimining asosiy namunalari hisoblanadi.

Bundan tashqari, "rivojlanayotgan davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ko'pincha zaif institutsional salohiyat, past axloqiy madaniyat va

iqtisodiy manfaat ustuvorligi sababli murakkablashadi" (Nguyen-Viet et al., 2017). Aynan shu holatlarni inobatga olgan holda, ekspertlar rivojlanayotgan davlatlarda faqat nazorat va jazoga asoslangan yondashuv emas, balki rag'batlantirish, o'zini-o'zi boshqarish tizimlarini rivojlantirishni tavsiya etadilar.

Ko'plab ekspertlar ta'kidlashicha, "xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqarishni faqat yirik korporatsiyalar emas, balki kichik fermerlar va norasmiy sektor vakillarini ham tizimga jalb qilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi" (Grace, 2015). Bunda esa, ularni o'qitish, infratuzilmani yaxshilash, bozor stimullarini shakllantirish kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, mahalliy oziq-ovqat bozorlari — ayniqsa "ho'l bozorlar" — xavfli, biroq beqiyos ahamiyatga ega sektor sifatida ajralib turadi. Ularda risklarni kamaytirish uchun "moslashtirilgan, real sharoitga mos va xarajat jihatidan maqbul strategiyalar ishlab chiqilishi lozim" (Grace, 2015).

Shuningdek, "WTO doirasidagi SPS bitimi oziq-ovqat xavfsizligini xalqaro savdo kontekstida tartibga solish imkonini yaratdi va mamlakatlarning o'z risk darajalarini aniqlash huquqini kafolatladi" (Athukorala, 2003). Bu esa, har bir davlatga o'zining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga mos siyosat yuritish imkonini beradi.

Metodologiya

Maqola xalqaro nashrlardagi (masalan, SSRN, ILRI, IFPRI) tahliliy maqolalarga tayanib yozildi. Qiyosiy tahlil usuli asosida AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Vetnam, Tailand va boshqa davlatlar tajribasi o'rganildi. Tahlil mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Normativ-huquqiy bazaning mavjudligi
2. Riskni baholash va boshqaruv yondashuvlari

3. Davlat-xususiy sektor hamkorligi
4. Xalqaro standartlarga muvofiqlik (Codex, WTO SPS)

Natijalar

Xalqaro tajribalarni o'rganish natijalariga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda har bir davlatning yondashuvi, institutsional mexanizmlari va tartibga solish darajasi turlicha bo'lib, ularning samaradorligi bevosita riskga asoslangan yondashuv, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, laboratoriya infratuzilmasi mavjudligi hamda qonunchilikning kuchi bilan belgilanadi. Ushbu bo'limda AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Vetnam kabi davlatlar misolida oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlarining asosiy komponentlari va ularning samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi.

AQSHda oziq-ovqat xavfsizligi tizimi Food and Drug Administration (FDA) va Food Safety and Inspection Service (FSIS) kabi federal agentliklar tomonidan boshqariladi. Ular Food Safety Modernization Act (FSMA) orqali profilaktika va riskga asoslangan yondashuvni asosiy tamoyil sifatida qabul qilgan. Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa General Food Law (2002) asosida faoliyat yuritiladi va oziq-ovqat mahsulotlarining "fermerdan dasturxongacha" kuzatuvchanligini ta'minlash majburiydir. Xitoyda esa oziq-ovqat xavfsizligiga oid qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularning ijrosi va monitoringi sust, korrupsiya va norasmiy bozorlar bu tizimni zaiflashtiradi. Vetnamda esa hozircha kuchli institutsional tizim shakllanmagan, tizimli risk baholash yo'q, bozordagi ishtirokchilar o'rtasida ishonchsizlik mavjud.

1-jadval.

**Turli mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligi boshqaruvi tizimining
asosiy jihatlari**

	Boshqa	Muvof	Ri	X	Labo
amlaka	ruv modelining	iqlashtiruvchi	skka	ususiy	ratoriya
t	turi	organlar	asoslanga	sektor	infratuzilma
			n	ishtirok	si
			yondashu	i	
			v		
QSH	FSMA asosida, riskga yo'naltirilgan	FDA, FSIS	K uchli	F aol	Yaxs hi rivojlangan
evropa Ittifoqi	General Food Law, HACCP	EFSA, milliy agentliklar	Yu qori	F aol	Integ ratsiyalashga n
itoy	Qattiq regulatsiya, inspeksiya asosida	AQSIQ, CFDA	Ri vojlanmoq da	C heklang an	Chek langan
etnam	Fragmentatsiyalashgan boshqaruv	Sog'liq ni saqlash, qishloq xo'jaligi va savdo	Ju da past	Z aif	Yetar li emas

		vazirliklari			
--	--	--------------	--	--	--

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash samaradorligi bevosita davlatning tizimli yondashuvi, institutsional salohiyati va xususiy sektorni jalb etish darajasiga bog'liq. Riskga asoslangan boshqaruv tizimlari (masalan, HACCP va FSMA) ishlab chiqaruvchidan tortib to iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarda xavflarni nazorat qilish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqida bu yondashuvga qo'shimcha ravishda mahsulotni kuzatuvchanligi, laborator tahlil natijalarining ochiqqligi va jamoatchilik bilan samarali kommunikatsiya orqali tizimning ishonchliligi ta'minlanmoqda.

Boshqa tomondan, Xitoy va Vetnam kabi mamlakatlarda institutsional segmentatsiya, korrupsiya, norasmiy bozorlarning ulushi yuqoriligi va qonunlarni ijro qilishdagi zaifliklar sababli oziq-ovqat xavfsizligiga oid siyosatlar yetarlicha samaradorlik kasb etmayapti. Ayniqsa, Vetnam tajribasida aholining xavfsiz oziq-ovqatga bo'lgan ishonchi juda past bo'lib, bu esa sog'liq uchun salbiy oqibatlar bilan bir qatorda, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ichki va tashqi bozorlarda talabni pasayishiga olib kelmoqda.

Natijalarga asoslanib aytish mumkinki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yagona universal model yo'q, lekin muvaffaqiyatli mamlakatlarda bu tizim quyidagi ustunliklarga ega: normativ bazaning yaxlitligi, ixtisoslashtirilgan agentliklar faoliyati, ilg'or laboratoriya infratuzilmasi, xususiy sektor bilan sheriklik, va riskga asoslangan yondashuv. Shu kabi omillarni hisobga olib, har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va institutsional sharoitlariga mos holda samarali modelni shakllantirishi mumkin.

Tahlil va muhokama

O'rganilgan xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda turli mamlakatlar har xil yondashuvlardan foydalanmoqda. Bu yondashuvlarning samaradorligi esa mamlakatning institutsional salohiyati, siyosiy irodasi, resurs bilan ta'minlanganligi, xususiy sektor bilan munosabatlari va aholining oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi xabardorligi bilan chambarchas bog'liq. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimini samarali yuritish uchun har bir mamlakat o'zining mavjud sharoitidan kelib chiqib, xalqaro tajribalardan moslashgan yondashuvlarni shakllantirishi lozim.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rinadiki, zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarida riskga asoslangan boshqaruv modeli, uzluksiz laborator monitoring, ta'minot zanjirining barcha bosqichlarida nazorat va "fermerdan dasturxongacha" prinsipi asosida harakat qilinadi. AQSH va Yevropa Ittifoqida aynan bunday yondashuvlar qo'llanilib, oziq-ovqat xavfsizligiga doir qonunchilikning qat'iyligi, shaffof monitoring tizimi va xususiy sektorning faol ishtiroki orqali yuqori darajadagi iste'molchi ishonchi ta'minlangan.

Boshqa tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Xitoy, Vetnam, Tailand) oziq-ovqat xavfsizligi masalasi qator tizimli muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Bu mamlakatlarda mavjud bozorlar tarkibida norasmiy segmentning yuqoriligi, bozor nazoratining markazlashmaganligi, axborot tizimlarining yetarli emasligi va aholining kam xabardorligi asosiy to'siqlardan biridir. Ayniqsa, Vetnam tajribasidan ko'rinadiki, iste'molchilarning oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan ishonchi juda past, bu esa salomatlikka tahdid tug'dirish bilan birga iqtisodiy islohotlarga ham zarar yetkazmoqda.

2-jadval.

**Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha ilg'or va rivojlanayotgan mamlakatlar
yondashuvlarining taqqosiy tahlili**

Tizimiy elementlar	Rivojlangan mamlakatlar (AQSH, YI)	Rivojlanayotgan mamlakatlar (Xitoy, Vetnam)
Riskga asoslangan yondashuv	HACCP, FSMA, Codex tamoyillariga mos	Fragmentatsiyalashgan yoki umuman yo'q
Qonunchilik va ijro	Mustahkam, barqaror, muntazam nazorat ostida	Kam samarali, selektiv ijro, resurs yetishmovchiligi
Laborator tarmog'i va diagnostika	Zamonaviy, integratsiyalashgan	Cheklangan, infrastruktura zaif
Xususiy sektor ishtiroki	Keng, standartlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi	Past darajada, jazo choralaridan qochish ustun
Aholining xabardorligi	Yuqori, risklar haqida ochiq kommunikatsiya mavjud	Past, norasmiy axborot manbalariga tayanuvchan
Ta'minot zanjiri monitoringi	To'liq kuzatuvchanlik (traceability)	Bo'lak-bo'lak va ko'pincha hujjatlarsiz

Norasmiy sektor ulushi	Nisbatan past, nazoratga olingan	Juda yuqori, xavfli holatlar ko‘p
---------------------------	-------------------------------------	--------------------------------------

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, samarali oziq-ovqat xavfsizligi tizimi nafaqat texnik vositalar bilan, balki institutsional islohotlar, siyosiy irodaning kuchi, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ishonch va faol hamkorlik bilan ta‘minlanadi. Ilg‘or mamlakatlar tajribasida bu omillar uyg‘unlashtirilgan. Jumladan, AQSHda xususiy sektor — ayniqsa yirik chakana savdo tarmoqlari — oziq-ovqat xavfsizligining barqaror mexanizmi sifatida faol ishlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, ayniqsa Xitoy va Vetnamda, qonunchilik qabul qilingan bo‘lsa-da, uning ijrosida sustkashlik, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi mavjud.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda quyidagi strategik yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Riskga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish (xavfli bosqichlarda nazorat kuchaytirish).
2. Davlat va xususiy sektor o‘rtasida sheriklik munosabatlarini shakllantirish.
3. Laboratoriya infratuzilmasini modernizatsiya qilish.
4. Mahsulotlar harakatini to‘liq kuzatib borish tizimini (traceability) joriy etish.
5. Aholining oziq-ovqat xavfsizligi haqidagi xabardorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bu soha islohotlarida texnikaviy choralar bilan
SJIF:5.219

birga institutsional, ijtimoiy va axloqiy yondashuvlar uyg'un holda olib borilishi kerak. O'zbekiston sharoitida esa, mavjud holatni chuqur tahlil qilgan holda, xalqaro tajribaga mos ravishda milliy modelni ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

O'rganilgan xalqaro tajribalar asosida aniqlanishicha, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali tizim yaratish har bir mamlakatning institutsional salohiyati, siyosiy irodasi, texnik infratuzilmasi va aholining xabardorlik darajasiga bog'liq. Rivojlangan davlatlar, xususan AQSH va Yevropa Ittifoqi, riskga asoslangan boshqaruv tizimlari, xususiy sektor ishtiroki, kuchli qonunchilik bazasi va mahsulot kuzatuvchanligi orqali yuqori xavfsizlik darajasiga erishgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa mavjud tizimlarning zaifligi, resurslar yetishmovchiligi va norasmiy sektorning yuqori ulushi ushbu sohadagi islohotlarni sekinlashtirmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda universal yondashuv mavjud emas, biroq xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xavfni baholashga asoslangan, bosqichma-bosqich va uzviy rivojlanadigan tizimlar samarali hisoblanadi. Har bir davlat milliy sharoitdan kelib chiqib, xalqaro standartlarga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishi lozim. O'zbekiston uchun ham samarali oziq-ovqat xavfsizligi tizimi yaratishda xalqaro tajribani o'rganish, xususiy sektorni jalb etish, laborator tarmoqlarni rivojlantirish va aholining xabardorligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Lin C.-F. Global Food Safety: Exploring Key Elements for an International Regulatory Strategy // Virginia Journal of International Law. – 2011. – Vol. 51, No. 3. – P. 637–694.
2. Athukorala P. Food Safety Issues, Trade and WTO Rules: A Developing Country Perspective. – Canberra: Australian National University, 2003. – 32 p. – (Paper for the 47th Annual Conference of the Agricultural and Resource Economics Society, Fremantle, Australia, 11–14 February 2003).
3. Grace D. Food Safety in Developing Countries: An Overview. – London: Evidence on Demand, 2015. – 54 p. – DOI: 10.12774/eod_er.oct2015.graced.
4. Nguyen-Viet H., Tuyet-Hanh T.T., Unger F., Dang-Xuan S., Grace D. Food Safety in Vietnam: Where We Are at and What We Can Learn from International Experiences // Infectious Diseases of Poverty. – 2017. – Vol. 6, No. 39. – P. 1–6. – DOI: 10.1186/s40249-017-0249-7.
5. Unnevehr L., Hoffmann V. Food Safety Management and Regulation: International Experiences and Lessons for China // Journal of Integrative Agriculture. – 2015. – Vol. 14, No. 11. – P. 2218–2230. – DOI: 10.1016/S2095-3119(15)61112-1.